Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqni tekislashda multimodal ta’lim texnologiyalarining o’rni	2224
Xodjabekova Surayyo Abduganiyevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida eko-art loyihalari	2229
Mamatova Xusnora Eshquvatovna	
Влияние искусственного интеллекта на развитие личности детей старшего возраста	2232
Матчанова Камила Фарход кизи	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.....	2237
Nazarova Asila Mamarasulovna	
The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6).....	2241
Rustamova Khurshida Yusupovna	
Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
Xusayinova Go'zal Abdurasulovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
Ismoilov Temurbek Islomovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy tafakkurning rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar	2266
Shaxobitdinov Xayotbek Hakimjon o'g'li	
Lexicon Expansion Model for ELF Learners: a Cognitive, Pedagogical, and Usage-Based Approach.....	2271
Komola Khikmatullaevna Usmanova	
Ta'limni fundamentallashtirish sharoitlarida axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish usullari va o'quv materiallari	2275
Boymanov Jasur Isroil o'g'li	
O'quvchilarda ta'lim jarayonida kimyoviy modellardan foydalanish tajribasi	2279
Jobborov Farxod Bo'riyevich	
Fanlararo aloqadorlikdagi masalalarni dasturiy ta'minot vositasida STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali yechishga o'rgatish metodikasi	2282
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni tatbiq etishning usul, vosita va metodlari	2286
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Shavkatova Jasmina Jamshid qizi	
Ta'limda raqamli darsliklarning o'rni va ahamiyati ("Dasturlash" fani misolida)	2291
Tursunov Mirolim Ahmadovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.....	2296
Z. S. Muxtorova	
Abdulla Avloniy pedagogik asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati.....	2300
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni qo'llashning samaradorligi	2304
Choriyeva Barno Alisher qizi	
O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan konstruktiv fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim (kimyo fani misolida)	2307
Azamatova Dilafruz Saydiganiyevna	
Совершенствование медиаграмотности будущих учителей начальных классов на основе интерактивных методов и геймификации	2311
Пулатова Муниса Садриддиновна	
Talabalarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati	2317
Abdumannatova Nargiza Abdumajidova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashga oid tushunchalarni nostandart vaziyatlar asosida rivojlantirish	2320
Raxmatova Nodira Imamovna	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishning ahamiyati.....	2323
Jo'rayeva Zuxraxon Akbarali qizi	
ESG tamoyillarining global ta'lim siyosatidagi o'rni	2328
Tursunova Shahzoda Baxromovna	



Internet kommunikatsiya vositalarining yoshlar ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga va ularning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri	2334
Kamiljanova Malikaxon Ravshonbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish ...	2338
Yusupova Nozima Mahamadaliyevna	
Духовное воспитание и концепция совершенного человека в трудах Абдурахмана Джамии.....	2342
Каримов Жамшид	
Raqamli chalg'ish fenomeni sifatida fabbing: talabalarning psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvori tahlili...	2347
Matchanova Dilbar Yusupboyevna	
Talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligining akademik muvaffaqiyatga ta'siri.....	2350
Jabborova Malohat Azimovna	
Challenges and Limitations of Using AI in Language Teaching	2355
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Rus tilidagi tadqiqotlarning tarixshunoslik talqini	2358
Axmatov M. M.	
O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashda "Keys-stadi" metodikasining ahamiyati	2362
Xasanov Mansur Abrarovich, Muxammadiev Umarali Sheraliyevich	
Umumta'lim maktablari musiqa darsida iqtidori o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari	2367
Ergashev Murodbek Ikromovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar.....	2370
Ruzikulova Surayyo Muxiddinovna	
Bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda jadid ma'rifatparvarlari metodikasini takomillashtirishning ilmiy asoslari.....	2374
Mamaniyozov Shaxzod Abror o'g'li	
O'quv jarayoniga moslashuv ijtimoiy-psixologik muammo sifatida	2378
Sultanova Shahnoza Mirxalilovna	
Ingliz va o'zbek tillaridagi sifatlarning qiyosiy tahlili	2382
Raxmonova E'zoza Sherzod qizi	
Pedagogik mahorat asosida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish	2385
Karimov Ilhom Normamatovich, Alikulova Saodat Muxitdinovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish	2389
Yaqubova Dinora Bahodirovna	
Ta'limning interfaol va innovatsion metodlari	2393
X. K. Qarshiboyeva	
Роль международных оценочных программ в оценке знаний учащихся.....	2396
Каландарова Дилноза Самандаровна, Зарипова Зайнаб Нарзулло кизи	
Inkorporatsion topshiriqlarning texnologiya ta'limida fanlararo integratsiyani ta'minlashdagi ahamiyati	2400
Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna	
O'zbek bolalar folklori tasnifi, janriy tarkibi va Oxunjon Safarov yondashuvi.....	2404
O'rinova Maftuna No'mon qizi	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy holatini tahlil qilish	2409
Xudoykulova Nilufar Xamdorovna	
The Future of AI in English Language Teaching: Trends, Predictions, and Research Directions.....	2414
Mavlonova Sevinch Abdurkarim qizi	
Muhandis-texnik talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	2418
Nazarova Marg'uba Gulamovna	
Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy modellari	2423
Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tizimida xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	2428
Maxkamova Husnida Ro'ziboyevna	
O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari tahlili	2431
Mavlanova Saidaxon Umarovna	
Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish	2436
Yuldashev Bahodir Narzullayevich	

Tarbiya darslari orqali birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish yo'llari	2439
<i>Tursunonova Nozima Ilxomovna</i>	
O'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari	2447
<i>Axmedova Gavhar Faxriddinovna</i>	
Artificial Intelligence in Educational Management: Opportunities and Predictive Mechanisms in the Context of Uzbekistan	2451
<i>Abduxamidova Muyassar</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarni mashg'ulot jarayonida texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish	2457
<i>Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning kognitiv fikrlash rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'siri	2460
<i>Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li</i>	
Developing Coordination and Balance in Athletics	2464
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni Case Study texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash	2470
<i>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna, Doliyeva Maxfuza Inomiddinovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati	2473
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Intellect xaritalar yordamida o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish	2476
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari orqali yosh voleybolchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	2482
<i>Imomov Sirojiddin Ilhomovich</i>	
The Historical Roots of Business English and the Lingua Franca	2486
<i>Jabborov Ilyosjon Abduraim ugli</i>	
O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda darajalangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish	2490
<i>Kadirova Gulnora Xasanovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish	2496
<i>Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish usullari (boshlang'ich sinf matematika darslari misolida)	2501
<i>M. M. Qosimova</i>	
O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy an'analar va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning psixologik omillari	2504
<i>Maxmudjonov I. I.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	2507
<i>Muminova Dilfuza Bahromjanovna</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi	2510
<i>Qodirova Mahzuna Shamsiddin qizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida guruhli ish shakllarini takomillashtirish nazariyasi va metodi	2513
<i>Safarova Shahlo Shuhratali qizi</i>	
Maktabda informatika fanini o'qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish	2517
<i>Saidova Dilduza Ergashovna, Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2521
<i>Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi</i>	
Developing Strength and Endurance in Wrestlers	2526
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition	2532
<i>Shermumadova Diyoraqxon Nurmuhamad kizi</i>	
Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish	2535
<i>Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li</i>	
Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar	2539
<i>Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimetriasini bartaraf etish	2543
<i>To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari	2546
Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna	
Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	2550
Uzakov Arslon Avazovich	
Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari	2553
Xolboboyev Shaxruz Shokirovich	
Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari	2559
Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna	
Boks texnikasini takomillashtirish usullari.....	2562
Xusanboy Mamatqulov	
No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv	2566
Yo'Ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi	
O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari.....	2570
Ayupova Xilola Azamatovna	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским	2574
Касимов Азиз Бердимуратович	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoeomtsional holatini tahlili.....	2578
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari	2581
Amriyeva Dilfuza Ruzievna	
Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	2586
Abdusamatov Alisher Sobirovich	
Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	2591
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari	2602
To'rabekov Farxod Sanakulovich	
Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi	2607
Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li	
Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations	2610
Gulmira Kamoladdinovna Madirimova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari	2613
Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna	
Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati	2617
Raxmatova Nodira	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....	2621
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish	2625
Nosirova Dilnoza Toir qizi	
Funksiya grafisini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
Musurmonova Shahlo G'ulomovna	
Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
Rashidova Sanobar Zokirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhaxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons tn the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatining tahlili	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	

TALABALARNING EMOTSIONAL HOLATI VA PSIXOLOGIK BARQARORLIGINING AKADEMIK MUVAFFAQIYATGA TA'SIRI

Jabborova Malohat Azimovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b.,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligining akademik muvaffaqiyatga ta'siri ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida emotsional holat, stressga chidamlilik, motivatsiya va psixologik moslashuv kabi omillarning o'quv natijalariga bevosita va bilvosita ta'siri asoslab beriladi. Zamonaviy ta'lim psixologiyasi, shaxs psixologiyasi hamda pedagogik tadqiqotlar asosida emotsional farovonlik, stressga bardoshlilik, motivatsiya va o'zini o'zi boshqarish kabi psixologik omillarning o'quv faoliyati samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni shakllantirishning ilmiy asoslari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: emotsional holat, psixologik barqarorlik, akademik muvaffaqiyat, stress, motivatsiya, talaba shaxsi, ta'lim psixologiyasi.

Abstract: This article examines the impact of students' emotional state and psychological resilience on academic achievement from both theoretical and practical perspectives. The direct and indirect effects of factors such as emotional state, stress tolerance, motivation, and psychological adaptation on learning outcomes are substantiated within the educational process. Based on contemporary research in educational psychology, personality psychology, and pedagogy, the influence of emotional well-being, stress resistance, motivation, and self-regulation on the effectiveness of academic activity is analyzed. In addition, the scientific foundations for creating a healthy psychological environment in higher education institutions are highlighted.

Key words: emotional state, psychological resilience, academic achievement, stress, motivation, student personality, educational psychology.

Аннотация: В статье с теоретической и практической точек зрения анализируется влияние эмоционального состояния и психологической устойчивости студентов на их академическую успешность. Обосновывается прямое и косвенное воздействие таких факторов, как эмоциональное состояние, стрессоустойчивость, мотивация и психологическая адаптация, на результаты учебной деятельности. На основе современных исследований в области психологии образования, психологии личности и педагогики рассматривается влияние эмоционального благополучия, стрессоустойчивости, мотивации и саморегуляции на эффективность учебной деятельности студентов. Кроме того, раскрываются научные основы формирования здоровой психологической среды в учреждениях высшего образования.

Ключевые слова: эмоциональное состояние, психологическая устойчивость, академическая успешность, стресс, мотивация, личность студента, психология образования.

KIRISH

Hozirgi davrda oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan hamda psixologik jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Ushbu jarayonda talabaning nafaqat intellektual salohiyati, balki uning emotsional holati va psixologik barqarorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning stressga duch kelishi, xavotir, ishonchsizlik hamda emotsional charchoq holatlarining ortib borishi ularning akademik natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, ta'lim samaradorligini oshirishda psixologik omillarni chuqur o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Emotsional holat shaxsning ichki kechinmalari, kayfiyati, ruhiy zo'riqishi hamda ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ularining majmuasidir. Ta'lim jarayonida ijobiy emotsional holat talabaning bilimni qabul qilishi, uni qayta ishlashi



va amaliyotda qo'llashiga qulay sharoit yaratadi. Aksincha, salbiy emotsiyalar – qo'rquv, xavotir, tushkunlik – diqqatning pasayishiga, xotiraning susayishiga va o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishning kamayishiga olib keladi. Ijoiy emotsional holat talabani bilmga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda o'quv materialini osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Salbiy emotsional holat esa, aksincha, kognitiv jarayonlarning sustlashuviga olib kelib, akademik muvaffaqiyatni pasaytiradi.

Emotsional holat shaxsning tashqi va ichki ta'sirlarga bo'lgan munosabatini ifodalovchi ruhiy kechinmalar majmuasidir. Psixologiya fanida emotsiyalar quvonch, qoniqish, xavotir, qo'rquv, g'azab va tushkunlik kabi holatlar orqali namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida emotsiyalar bilish faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, ular diqqat, xotira, tafakkur va iroda jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, barqaror ijobiy emotsional fon talabalarda o'ziga ishonchni kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Psixologik barqarorlik va uning tarkibiy omillari. Psixologik barqarorlik shaxsning murakkab va stressli vaziyatlarda ichki muvozanatini saqlay olish, emotsiyalarini nazorat qilish hamda faoliyat samaradorligini yo'qotmaslik qobiliyatidir. Talabalarda psixologik barqarorlik quyidagi tarkibiy qismlar orqali namoyon bo'ladi:

- emotsional o'zini boshqarish;
- stressga bardoshlilik;
- motivatsion barqarorlik;
- ijtimoiy moslashuvchanlik;
- o'ziga bo'lgan ishonch va refleksiya.

Mazkur omillar yetarli darajada shakllanganda talaba o'quv jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga qodir bo'ladi.

Akademik muvaffaqiyat tushunchasi va uning ko'rsatkichlari. Akademik muvaffaqiyat talabani o'quv faoliyatidagi natijalari, bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasi bilan belgilanadi. U nafaqat baholar bilan, balki mustaqil ishlash qobiliyati, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv bilan ham ifodalanadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori akademik natijalarga erishgan talabalar odatda ijobiy emotsional fon hamda mustahkam psixologik barqarorlikka ega bo'ladilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Olimlar qarashlari va ilmiy manbalarda muammoning yoritilishi. Talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligining akademik muvaffaqiyatga ta'siri masalasi psixologiya va pedagogika fanlarida uzoq yillardan buyon ilmiy jihatdan tadqiq etib kelinmoqda. Ushbu muammo shaxs psixologiyasi, ta'lim psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya hamda pedagogik metodologiya doirasida yoritilgan.

Emotsional holat va bilish jarayonlari haqidagi nazariyalar. L. S. Vigotskiy o'zining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida emotsiyalarni bilish jarayonlaridan ajralmas hodisa sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, har qanday intellektual faoliyat emotsional munosabat bilan birga kechadi va bu holat ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi ^[1]. Vigotskiy emotsional holatning o'quv faoliyatidagi yetakchi rolini asoslab, ijobiy emotsional muhit o'quvchini faol subyektga aylantirishini ta'kidlaydi.

A. N. Leontev faoliyat nazariyasida emotsiyalarni faoliyatning ichki regulyatori sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, emotsional holat shaxsning faoliyatga bo'lgan munosabatini belgilaydi va motivatsion jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir ^[2]. Ta'lim jarayonida bu holat o'quv motivatsiyasi va akademik faollikda yaqqol namoyon bo'ladi.

Stress va psixologik barqarorlik masalalari. G. Selye tomonidan ishlab chiqilgan stress nazariyasi psixologik barqarorlik tushunchasining ilmiy asosini tashkil etadi. Olim stressni organizmning tashqi va ichki zo'riqishlarga nisbatan moslashuv reaksiyasi sifatida talqin qiladi ^[3]. Selye fikricha, stressning me'yoriy darajasi faoliyatni rag'batlantirsa, ortiqcha stress emotsional va akademik faoliyat samaradorligini pasaytiradi.

R. Lazarus va S. Folkman stress va yengish strategiyalari nazariyasida shaxsning stressli vaziyatlarni subyektiv baholashi va ularga nisbatan munosabati psixologik barqarorlikni belgilashini asoslaydi ^[4]. Talabalar misolida ushbu yondashuv imtihonlar va baholash jarayonidagi xavotirni tushuntirishda muhim ahamiyatga ega.

Emotsional intellekt va uning o'quv faoliyatidagi o'rni. Emotsional intellekt – shaxsning o'z emotsiyalarini anglash, boshqarish va boshqalarning emotsiyalarini tushunish qobiliyatidir. Yuqori emotsional intellektga ega talabalar ta'lim jarayonida stressga kamroq duch keladi, muloqotda muvaffaqiyatli bo'ladi hamda akademik faoliyatda yuqori natijalarga erishadi.



Emotsional intellekt tushunchasi zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida shaxs muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Emotsional intellekt shaxsning o'z emotsiyalarini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning emotsional holatini tushunish va ijtimoiy munosabatlarda samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu tushuncha, ayniqsa, ta'lim jarayonida talabalar faoliyatining samaradorligini izohlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Emotsional intellekt tushunchasining ilmiy talqini. P. Salovey va J. Mayer emotsional intellekt shaxsning emotsional axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash va amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Ularning fikricha, emotsional intellekt intellektual salohiyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi ^[5].

D. Goleman ushbu tushunchani yanada kengaytirib, emotsional intellekt shaxs muvaffaqiyatining asosi sifatida ko'rsatadi. U emotsional intellekt besh asosiy komponentga ajratadi: o'z emotsiyalarini anglash, ularni boshqarish, ichki motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar ^[6]. Goleman fikricha, aynan ushbu sifatlar ta'lim jarayonida talabaning akademik va ijtimoiy moslashuvini belgilaydi.

Emotsional intellektning akademik faoliyatga ta'siri. Emotsional intellektning yuqori darajada rivojlanganligi talabaning o'quv faoliyatida bir qator ijobiy natijalarga olib keladi. Avvalo, bunday talabalar o'z emotsional holatini anglab, stressli vaziyatlarda o'zini boshqara oladi. Imtihonlar, baholash jarayoni va jamoat oldida chiqish kabi holatlar emotsional intellekti yuqori bo'lgan talabalarda kamroq xavotir uyg'otadi.

Shuningdek, emotsional intellekt diqqatni jamlash, vaqtni samarali taqsimlash va o'quv faoliyatini rejalashtirishga yordam beradi. Bu esa akademik natijalarning barqarorligini ta'minlaydi.

Emotsional intellekt va motivatsiya o'rtasidagi bog'liqlik. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt talabaning ichki motivatsiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O'z emotsiyalarini boshqara oladigan talaba o'qish jarayonidan qoniqish oladi, muvaffaqiyatsizlikni shaxsiy inqiroz sifatida emas, balki rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qiladi.

E. Deki va R. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o'zini o'zi belgilash nazariyasiga ko'ra, emotsional farovonlik va ichki motivatsiya o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjud ^[7]. Ushbu bog'liqlik akademik muvaffaqiyatning uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

Emotsional intellekt va ijtimoiy-akademik moslashuv. Emotsional intellekt talabaning ta'lim muhitiga moslashuvida ham muhim rol o'ynaydi. Yuqori emotsional intellektga ega talabalar o'qituvchilar va guruhdoshlari bilan samarali muloqot o'rnatadi, jamoaviy ishlarda faol ishtirok etadi hamda akademik munosabatlarda ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi.

Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, akademik muvaffaqiyat faqat individual bilim bilan emas, balki shaxslararo munosabatlar sifati bilan ham belgilanadi. Bu jarayonda emotsional intellekt integrativ mexanizm vazifasini bajaradi.

Pedagogik va psixologik yondashuvlar. Talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligini mustahkamlashda quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyatga ega:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
- psixologik trening va maslahatlar;
- ijobiy pedagogik muhitni yaratish;
- refleksiya va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ushbu yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga talabaning shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligining akademik muvaffaqiyatga ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot davomida empirik ma'lumotlar so'rovnoma, psixologik test va kuzatish usullari orqali yig'ildi. So'rovnoma talabalarning emotsional holati, stress darajasi va motivatsion holatini aniqlashga qaratildi, standartlashtirilgan psixologik testlar yordamida esa psixologik barqarorlik ko'rsatkichlari baholandi. Akademik muvaffaqiyat ko'rsatkichlari talabalar reyting natijalari va o'zlashtirish darajasi asosida tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat tahlili usullari yordamida qayta ishlanib, korrelyatsion tahlil orqali psixologik omillar bilan akademik natijalar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi. Natijalar umumlashtirish va taqqoslash usullari asosida ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Emotsional holat va psixologik barqarorlik akademik muvaffaqiyatga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Akademik muvaffaqiyat nafaqat intellektual salohiyat, balki psixologik omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ijobiy emotsional holat va yuqori psixologik barqarorlik quyidagi natijalarga olib keladi:

- o'quv motivatsiyasining ortishi;
- diqqat va xotiraning faollashuvi;
- mustaqil ta'lim olishga tayyorlik;
- baholash jarayonidagi qo'rquv va xavotirning kamayishi.

Aksincha, uzoq davom etuvchi stress va salbiy emotsional holat akademik ko'rsatkichlarning pasayishiga, o'qishga bo'lgan qiziqishning so'nishiga va hatto akademik muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Emotsional holat va psixologik barqarorlikning akademik muvaffaqiyatga ta'sir mexanizmlari. Emotsional holat va psixologik barqarorlik akademik muvaffaqiyatga bir nechta mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi:

- o'quv motivatsiyasining shakllanishi va mustahkamlanishi;
- diqqat va xotira jarayonlarining faollashuvi;
- baholash va imtihonlardagi stressning kamayishi;
- o'quv faoliyatiga ijobiy munosabatning yuzaga kelishi.

Uzoq muddatli salbiy emotsional holat esa akademik befarqlik va o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishiga olib keladi.

Emotsional holat va psixologik barqarorlikning akademik muvaffaqiyatga ta'siri murakkab, ko'p bosqichli hamda o'zaro bog'liq mexanizmlar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizmlarni anglash ta'lim jarayonida talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish, o'quv faoliyati samaradorligini oshirish hamda psixologik muammolarning oldini olishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

- 1. Kognitiv jarayonlar orqali ta'sir mexanizmi.** Emotsional holat, avvalo, bilish jarayonlariga – diqqat, xotira, tafakkur va idrokka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy emotsional fon sharoitida talabaniq diqqatini jamlash qobiliyati kuchayadi, o'quv materialini idrok etish tezligi va aniqligi ortadi. Bunday holatda axborot miyada tizimli ravishda qayta ishlanadi va uzoq muddatli xotirada mustahkamlanadi.

Salbiy emotsiyalar, xususan, xavotir va qo'rquv esa kognitiv resurslarning bir qismini egallab, o'quv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada talaba o'z bilimini to'liq namoyon eta olmaydi, hatto yetarli tayyorgarlikka ega bo'lgan taqdirda ham akademik natijalar kutilgan darajada bo'lmasligi mumkin.

- 2. Motivatsion mexanizm.** Emotsional holat va psixologik barqarorlik talabaniq o'qishga bo'lgan ichki va tashqi motivatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ijobiy emotsiyalar o'quv faoliyatiga qiziqish, bilim olishdan qoniqish va o'zini rivojlantirish ehtiyojini kuchaytiradi. Psixologik barqaror talaba o'z oldiga aniq maqsadlar qo'ya oladi va ularga erishish yo'lida qat'iyat bilan harakat qiladi.

Aksincha, emotsional beqarorlik va doimiy stress holati motivatsiyaning pasayishiga, o'qishga befarqlik va mas'uliyatsizlikning kuchayishiga olib keladi. Bu holat akademik muvaffaqiyatning izchil rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

- 3. Stress va adaptatsiya mexanizmi.** Akademik faoliyat davomida talabalar turli stress omillariga duch keladi: imtihonlar, baholash, vaqt tanqisligi, ijtimoiy moslashuv va boshqa omillar. Psixologik barqarorlik aynan mana shu stress omillariga moslashish mexanizmini belgilaydi. Stressga chidamli talabalar murakkab vaziyatlarda o'z emotsiyalarini nazorat qila oladi, muammolarga konstruktiv yechim topadi va faoliyat samaradorligini saqlab qoladi.

Psixologik barqarorlik yetarli bo'lmagan holatlarda esa stress emotsional zo'riqish, charchoq va ruhiy tushkunlikka olib kelib, akademik muvaffaqiyatni keskin pasaytiradi.

- 4. O'zini o'zi boshqarish mexanizmi.** Emotsional holat va psixologik barqarorlik o'zini o'zi boshqarish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. O'zini boshqara oladigan talaba vaqtni rejalashtirish, o'quv faoliyatini nazorat qilish va muvaffaqiyatsizliklardan to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu esa akademik faoliyatda barqaror natijalarga erishish imkonini yaratadi.

O'zini o'zi boshqarishning sustligi esa emotsional zo'riqishlar, o'ziga ishonchsizlik va o'quv jarayonidagi tartibsizliklarga sabab bo'ladi.



- 5. Ijtimoiy-psixologik mexanizm.** Talabaning emotsional holati va psixologik barqarorligi uning ijtimoiy muhit bilan munosabatlarida ham namoyon bo'ladi. O'qituvchi va guruhdagi talabalar bilan ijobiy muloqot, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hissi talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ushbu omil akademik faoliyatda faol ishtirok etish, savol berish va fikr bildirishga undaydi.

Salbiy ijtimoiy muhit esa emotsional tanglikni kuchaytirib, akademik muvaffaqiyatga to'sqinlik qiluvchi psixologik to'siqlarni yuzaga keltiradi.

- 6. Uzoq muddatli rivojlanish mexanizmi.** Emotsional holat va psixologik barqarorlikning akademik muvaffaqiyatga ta'siri uzoq muddatli xarakterga ega. Talabalik davrida shakllangan psixologik barqarorlik kasbiy faoliyatda ham muvaffaqiyatli moslashuv, doimiy o'rganish va o'zini rivojlantirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois, emotsional holat va psixologik barqarorlikni rivojlantirish akademik muvaffaqiyat bilan bir qatorda shaxsning kelajak hayotidagi ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatlarini ham belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligi akademik muvaffaqiyatning muhim psixologik omillari hisoblanadi. Ijobiy emotsional muhit va barqaror psixologik holat talabalarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga, o'quv natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta'lim tizimida psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish hamda talabalarning emotsional farovonligiga e'tibor qaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Виготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Педагогика, 1982. – 320 с.
2. Леонтьев А. Н. Психология деятельности. – М.: Академия, 2004. – 384 с.
3. Селье Г. Стресс без дистресса. – М.: Прогресс, 1982. – 288 с.
4. Lazarus R. S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer, 1984. – 445 p.
5. Mayer J. D., Salovey P., Caruso D. R. Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications // Psychological Inquiry. – 2004. – Vol. 15, № 3. – P. 197–215.
6. Goleman D. Working with Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1998. – 416 p.
7. Ryan R. M., Deci E. L. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Well-being. – New York: Guilford Press, 2017. – 648 p.
8. Jabborova M. A. Talabalar akademik o'zlashtirishga ta'sir etuvchi omillar // O'zbekiston milliy universiteti xabarleri. – Toshkent, 2022. – № 10 [1/10/1]. – B. 82–84.
9. Jabborova M. A. Talabalarda o'qishga bo'lgan ijobiy psixologik holat (o'ziga ishonch, o'qish jarayonidan qoniqish)ni shakllanishining o'zlashtirishga ta'siri // Zamonaviy jamiyat va innovatsiyalar. Ilmiy-nazariy jurnal. – № 11-son, 2025. – B. 92–296.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.